



JAHON TURIZM TASHKILOTI BILAN SHERIKLIKNI YANADA RIVOJLANTIRISH MUHIMLIGI QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev
12-iyul kuni mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan
Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) bosh kotibi
Zurab Pololikashvilini qabul qildi.



BMT tizimidagi ushbu yetakchi sohaviy tashkilot bilan O‘zbekistonda zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish va yurtimizga turizm yo‘nalishlarini ommalashtirish borasida keng ko‘lamli hamkorlikni yanada ilgari surish masalalari muhokama qilindi.

Suhbat avvalida bosh kotib Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalari va institutlari nomidan davlatimiz rahbarini bo‘lib o‘tgan Prezident saylovidagi ishonchli g‘alabasi bilan samimiy tabrikladi, baxt-saodat va katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Turizm tarmog‘ining joriy yildagi bosh xalqaro tadbiri — oktabr oyida Samarqand shahrida bo‘lajak UNWTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zbekistonda zamonaviy va qulay turizm infratuzilmasini yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirishga yetakchi investorlar — taniqli xorijiy kompaniya va brendlarni jalb qilish masalasida amaliy hamkorlikni kengaytirish muhimligi qayd etildi.

Bundan tashqari, mamlakatimizda xalqaro imijni ilgari surish, ta‘lim sohasi va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida qo‘shma chora-tadbirlar majmui amalga oshiriladi, jumladan, UNWTO Xalqaro akademiyasi va mavzuli ofisi tashkil etiladi.

O‘za

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI ARMANISTON BOSH VAZIRI BILAN IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH MASALALARINI MUHOKAMA QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning
Armaniston Respublikasi Bosh vaziri Nikol Pashinyan bilan
12-iyul kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqotida ikki tomonlama
munosabatlarni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar
sohalarda rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Armaniston hukumati rahbari mamlakatimiz yetakchisini Prezident saylovidagi ishonchli g‘alabasi bilan tabriklab, katta muvaffaqiyatlar va baxt-saodat tiladi.

Suhbatda amaliy hamkorlik loyihalarini

ilgari surish maqsadida Hukumatlararo komissiyani birinchi yig‘ilishi hamda qo‘shma ishbilarmonlik tadbirlarini o‘tkazish muhimligi alohida ta‘kidlandi.

O‘za

POKISTON BOSH VAZIRI O‘ZBEKISTON PREZIDENTINI SAYLOVDAGI G‘ALABASI BILAN TABRIKLADI

12-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va
Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharif telefon orqali
muloqot qildilar.

Ikki tomonlama munosabatlar va min-taqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Pokiston yetakchisi davlatimiz rahbarini bo‘lib o‘tgan Prezident saylovida ishonchli g‘alaba qozongan bilan samimiy qutlab, O‘zbekiston xalqiga tinchlik-osoyshtalik, farovonlik va ravnaq tiladi.

Suhbat chog‘ida tomonlar savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalarda oliy darajada

qabul qilingan bitim va kelishuvlar amalga oshirilishi muhimligini qayd etdilar.

Mamlakatlarimiz yetakchi korxonalari kooperatsiyasini rivojlantirish va o‘zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani ta‘kidlandi.

Transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini ilgari surishga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘za

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

RESPUBLIKADA MILLIY ASKIYA VA QIZIQCHILIK SAN’ATINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarimizni, shu jumladan, milliy askiya va qiziqchilik san’atini asrab-avaylash, keng targ‘ib etish va kelgusi avlod uchun nomoddiy madaniy meros sifatida yetkazish maqsadida:

1. Marg‘ilon shahrida Madaniyat va turizm vazirligi tizimida davlat muassasasi shaklida **Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san’ati markazi** (keyingi o‘rinlarda — Markaz) tashkil etilsin.

Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

askiya va qiziqchilik ijrochiligi yo‘nalishida “ustoz-shogird” an‘analarini rivojlantirish, iste’dodli yoshlarni tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, madaniyat va ta‘lim muassasalarida askiya va qiziqchilik san’ati to‘garaklarini tashkil etish;

o‘zbek xalq og‘zaki ijodining askiya va qiziqchilik san’atini saqlash va targ‘ib etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, bu borada, ijodkorlar, folklorshunos olimlar,

o‘qituvchi va mutaxassislarning ijodiy va ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;

askiya va qiziqchilik bilan shug‘ullanuvchi ijodkorlarga har tomonlama ko‘maklashish, ommaviy bayramlar va madaniy tadbirlarda ularning faol ishtirokini ta‘minlash, mamlakatimizda va xorijiy davlatlarda **gas-trol faoliyatini amalga oshirish**, festival, ko‘rik-tanlov, ijodiy kechalar, askiya va qiziqchilik tomoshalarini tashkil etish;

askiya va qiziqchilik san’atining **payrov, qofiya, bahri-bayt, afsona, radif, aytishuv, rabbiya kabi noyob shakllarini** asrash va targ‘ib etish, sahnaviy syujetlarini rivojlantirish hamda **iste’dodli so‘z ustalarining ijod fondini va maxsus adabiyotlarni yaratish**.

2. Quyidagilar:

har yili so‘z ustalari va qiziqchilar o‘rtasida **“Xush kayfiyat” respublika ko‘rik-tanlovi** hamda askiya kechalari;

askiya va milliy qiziqchilik san’atimizni jahon miqyosida targ‘ib qilish maqsadida har ikki yilda bir marta **“Tabassum” xalqaro kulgi festivali**;

Davomi 2-betda



EKSPERTLAR FIKRI

O‘ZBEKISTON XALQI O‘Z MAMLAKATINING TARAQQIYOTIGA KOMIL ISHONCH BILAN QARAYDI

XITOIY EKSPERTLARI 9-IYUL KUNI BO‘LIB O‘TGAN
O‘ZBEKISTON PREZIDENTI SAYLOVINING
YAKUNLARI TO‘G‘RISIDA

Szin CHJE,
Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining
Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy
Osiyo instituti direktori
o‘rinbosari:

— O‘zbekiston fuqarolari muddatidan ilgari Prezident saylovida faol ishtirok etdilar. Bu O‘zbekiston xalqi o‘z mamlakatining kelajakdagi taraqqiyotiga komil ishonch bilan qarashidan dalolat beradi.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Q A R O R I

“XIVA — 2024-YILDA ISLOM DUNYOSINING TURIZM POYTaxTI” TAYYORGARLIK KO‘RISH VA UNI O‘TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Xiva shahri 2024-yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti” deb e‘lon qilinganligi munosabati bilan hamda Xiva shahri-ning turistik salohiyatini xalqaro maydonda faol targ‘ib qilish maqsadida:

1. 2022-yil 27-29-iyun kunlari Boku shahrida (Ozərbaycan Respublikasi) bo‘lib o‘tgan Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar turizm vazirlarining XI sessiyasida **Xiva shahri 2024-yilda “Islom dunyosining turizm poytaxti” deb e‘lon qilinganligi** ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:
“Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” xalqaro tadbiriga (keyingi o‘rinlarda — xalqaro tadbir) tayyorgarlik

ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha **tashkiliy qo‘mita** (keyingi o‘rinlarda — tashkiliy qo‘mita) **tarkibi 1-ilovaga** muvofiq;

“Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” xalqaro tadbiriga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha **chora-tadbirlar rejasini** (keyingi o‘rinlarda — chora-tadbirlar rejasini) **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilab qo‘yilsinki:
a) **2024-yil mart oyida** “Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti” shiori ostida Xiva shahrida xalqaro tadbirning **rasmiy ochilish marosimi** hamda **may oyida** Xiva shahrida **Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar**

turizm vazirlarining XII sessiyasi o‘tkaziladi;

b) ushbu xalqaro tadbirga Islom hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlardan ishtirokchilar va ekspertlar jalb qilinadi, xalqaro tadbir ommaviy axborot vositalarida keng yoritib boriladi;

d) Xiva shahri-ning turistik salohiyatini xalqaro maydonda faol targ‘ib qilish maqsadida 2023-2024-yillarda quyidagi tadbirlar o‘tkaziladi:

“Taste of Uzbekistan Festival” shiori ostida **gastronomik festival**;
Pahlavon Mahmud xotirasiga bag‘ishlangan **“Strongmen” xalqaro bahodirlar o‘yini** musobaqasi;

“Xalqaro ziyorat turizmi haftaligi” doirasidagi tadbirlar;

e) mas‘ul vazirlik va idoralarning birinchi rahbarlari ushbu qarorda nazarda tutilgan topshiriqlar, shuningdek, tashkiliy qo‘mitaning tezkor ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta‘minlash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

4. **Tashkiliy qo‘mita** (A.Aripov):
chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha mas‘ul davlat organlari va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib borsin;

Davomi 2-betda



BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

IJTIMOIIY MO‘LJAL VA MA‘NAVIY IDEAL MASALALARI

(Birinchi maqola)

Aksioma gap: inson doimo mukammallikka intiladi.

Har qanday aqlli odam ba‘zan imkoniyatlari darajasida, ayrim hollarda esa o‘z kuch-qudrati, bilim saviyasini e‘tiborga olmagan holda oldiga katta va kichik maqsadlar qo‘yadi, ulug‘vor rejalar tuzadi. Bunday maqsad va rejalar amalga oshganda — quvonadi, bu borada muvaffaqiyatsizlikka uchraganda esa — qayg‘uradi. Bularning sababi ayrim hollarda obyektiv, xolis baholanadi, ba‘zan esa o‘z omadsizligini boshqalarning, jamiyatning adolatsizligidan qidiradi.

Davomi 3-betda



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R IRESPUBLIKADA MILLIY ASKIYA VA QIZIQCHILIK
SAN'ATINI YANADA RIVOJLANTIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

har yili askiya va qiziqchilar jamoalarining mahalliy gastrol safarlari; respublikadagi madaniyat markazlari, madaniyat va san'at yo'nalishidagi ta'lim tashkilotlarida askiya va qiziqchilik san'ati to'garaklari va ijodiy jamoalari hamda ularning jamoatchilik uchun har yili hisobot konsertlari tashkil etilisin.

3. Askiya va qiziqchilik san'ati bilan shug'ullanuvchi ijodiy jamoalar va yozuvchi-dramaturglar tomonidan birgalikda yaratilgan hajviy asarlarni sahnalashtirish, ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish va aholiga xush kayfiyat ulashishga qaratilgan konsert-tomosh tadbirlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida:

har yili kamida 3 ta ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini tanlovlar asosida shakllantirish;

har yili kamida 5 ta sahnada namoyish etishga mo'ljallangan hajviy asar uchun davlat buyurtmasini berish;

ijodiy tanlov asosida erkin ijodkor va jamoalar tomonidan har yili kamida 10 ta konsert-tomosh tadbiri va askiya kechalariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni qoplab berish;

har yili kamida 25 ta yuksak badiiy saviyadagi Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun mo'ljallangan audiovizual asarlar yaratish uchun davlat buyurtmasini berish, bunda eng keng ommalashgan 5 ta audiovizual asar ijodkorlarini Madaniyat va turizm vazirligi hay'atining qarori bilan bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash belgilansin.

Ushbu bandning ikkinchi xatboshisida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar davlat ilmiy dasturlari doirasida ajratilgan mablag'lar hisobidan, uchinchi — beshinchi xatboshilarida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar Madaniyat va turizm vazirligiga ajratilgan Davlat budgeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

4. Quyidagilar:
Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazining Vasiylik kengashi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Askiya va qiziqchilik san'ati sohasidagi taniqli ijodkorlar tomonidan tashkil etilayotgan mahorat maktablari ro'yxati 2-ilovaga muvofiq;

Askiya va qiziqchilar jamoalarining 2023-2024-yillarga mo'ljallangan mahalliy gastrol safarlari rejası 3-ilovaga muvofiq;

Askiya va qiziqchilar jamoalarining 2023-2024-yillarga mo'ljallangan korxona va tashkilotlarga gastrol safarlarini tashkil etish rejası 4-ilovaga muvofiq;

Respublikada askiya va qiziqchilik san'atini rivojlantirish va ilmiy-o'rganish hamda targ'ib etishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan "yo'l xaritasi" 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Davlat organlari, muassasalari va korxonalari har chorakda kamida bir

marotaba budgetdan tashqari mablag'lari hamda kasaba uyushmalari mablag'lari hisobidan o'z xodimlarining madaniy-esetik hordiq chiqarishlari uchun ommaviy-madaniy va konsert-tomosh tadbirlarini tashkil etish, shuningdek, konsert, sirk va teatrlarga, askiya, qiziqchilik va so'z san'ati tomoshalariga kirish uchun chipta va abonementlarni xarid qilish amaliyotini yo'lga qo'ysin.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (A.Ortiqov), xo'jalik jamiyatlari muassisi bo'lgan boshqa davlat organlari bir oy muddatda ustav fondida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida hamda davlat korxonalarining boshqaruv organlari yig'ilishlarida ushbu tashkilotlar buyurtmasi asosida xodimlar va ularning oila a'zolari uchun ommaviy-madaniy va konsert-tomosh tadbirlarini o'tkazish vazifasini biznes-rejaga kiritish bo'yicha tashabbus bilan chiqsın.

Madaniyat va turizm vazirligi (O.Nazarbekov) har oyning 25-sanasisga qadar kelgusi oyda tashkil etiladigan ommaviy-madaniy va konsert-tomosh, shu jumladan, askiya va qiziqchilik tomoshalariga haqida davlat boshqaruvi organlari, muassasalari, korxonalari va xo'jalik jamiyatlarini xabardor qilib borsin.

6. Belgilansinki:
askiya va qiziqchilik san'ati sohasida taniqli ijodkorlarning mahorat maktablari faoliyati yo'lga qo'yiladi;

ushbu qarorda belgilangan tartibda o'zining mahorat muassasaning obyektlaridan tekin foydalanish huquqi berilib, ularga ushbu muassasa tomonidan alohida xona ajratiladi va boshqa zarur shart-sharoitlar yaratiladi.

7. Markazning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ijodkorlari ijtimoiy sharoitini yaxshilash maqsadida:
Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan Markazni saqlash va uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun mahalliy budgetdan 2023-yilda 2,3 milliard so'm, 2024-yildan boshlab esa Markaz talabnomasi asosida zarur mablag'lar ajratiladi;

"O'zbektelekom" AKning doimiy ravishda homiylik yordami ko'rsatishni nazarda tutuvchi "Do'stlar klubi"ni tashkil etish hamda 2023-yil uchun 5 milliard so'm homiylik xayriyasi hamda kelgusi yillarda ham homiylik xayriyalari ajratib borish to'g'risidagi taklifi qo'llab-quvvatlasın.

Markaz Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahri, Mustaqillik ko'chasi, 470 a-uy manzilida joylashgan Marg'ilon madaniyat

markazi binosiga tekin foydalanish huquqi asosida joylashtirilsin.

8. Madaniyat va turizm vazirligi (O. Nazarbekov):

a) ikki oy muddatda:

Markaz ustavi va tuzilmasini tasdiqlasin hamda uning samarali faoliyat olib borishini yo'lga qo'ysin, shuningdek, davlat madaniyat tashkilotlari shtat birliklarining sonini maqbullashtirish hisobiga Markazga 12 ta shtat birligi ajratilishini ta'minlasın;

ijodiy jamoalar va yozuvchi-dramaturglar tomonidan birgalikda yaratilgan hajviy asarlarni sahnalashtirish uchun davlat buyurtmalarini berish hamda ushbu qarorning 6-bandida nazarda tutilgan mahorat maktablari faoliyati natijadorligini baholash tartiblarini tasdiqlasin;

b) Fanlar akademiyasi (B.Yuldashev), Yoshlar siyosati va sport vazirligi (A.Ikramov), Respublika Ma'naviyat va marifat markazi (M.Xojimatov), Yozuvchilar uyushmasi (S.Saidov) hamda boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda ushbu qarorning 2-bandida nazarda tutilgan tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazib borsin.

Bunda, ushbu qarorning 2-bandida nazarda tutilgan tadbirlarni tashkil etish bilan bog'liq xarajatlar Madaniyat va turizm vazirligiga ajratilgan Davlat budgeti hamda tegishli mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan teng ulushda qoplanadi;

d) Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (H.Umarova) hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (I.Abduraxmonov) bilan birgalikda:

2024/2025-o'quv yilidan boshlab Karim Zaripov nomidagi Respublika estrada va sirk kolleji hamda Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabida "askiya va qiziqchilik san'ati" yo'nalishi ochilishini tashkil qilsin, shuningdek, ularni ushbu yo'nalishlar bo'yicha yuqori malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirishni ta'minlasın;

"askiya va qiziqchilik san'ati" yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqsın va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

e) O'zbekiston Milliy teleradio kompaniyasi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan birgalikda askiya va qiziqchilik san'atiga doir tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritish ishlari alohida ishlab chiqilgan media-reja asosida muntazam tashkil etilishini ta'minlasın.

9. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib madaniyat va turizm vaziri O.A.Nazarbekov belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi O.Q.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOEV

Toshkent shahri,
2023-yil 11-iyulO'zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R I“XIVA — 2024-YILDA ISLom DUNYOSINING TURIZM
POYTaxTI” XALQARO TADBIRIGA TAYYORGARLIK KO'RISH
VA UNI O'TKAZISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

xalqaro tadbirga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda yuzaga keladigan tashkiliy masalalarni tezkorlik bilan hal etsin;

Xiva shahrida xalqaro tadbir o'tkaziladigan joylarning texnik va telekommunikatsiya uskunalari bilan jihozlanishini ta'minlasın;

Xorazm viloyati, shu jumladan, Xiva shahrida o'tkaziladigan qabul, madaniy tadbirlar va xorijiy mehmonlarning sayohatini tashkilashtirsin;

xalqaro tadbirga qatnashuvchilarning O'zbekistonga kelib-ketishi, ularga viza rasmiylashtirilishi, transport va tibbiy xizmat ko'rsatish masalalarini muvofiqlashtirsin;

xalqaro tadbir bo'lib o'tadigan hududlarni obodonlashtirish ishlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlasın; xalqaro tadbir bo'lib o'tadigan hududlarda obyektlar va mehmonxona fondining tayyorligini ta'minlasın;

zarur hollarda, xalqaro tadbirni yuqori saviyada tashkil etish bilan bog'liq tezkor qarorlar qabul qilsin.

5. Madaniyat va turizm vazirligi:

a) bir oy muddatda "Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti" xalqaro tadbiri logotipini ishlab chiqsın;

b) ikki oy muddatda:

Fanlar akademiyasi, Din ishlari bo'yicha qo'mita, O'zbekistondagi Islom siyolizatsiyasi markazi, Xorazm Ma'mun akademiyasi bilan birgalikda xalqaro tadbirga tashrif buyuradigan xorijiy mehmonlar foydalanishi uchun Xiva shahri haqida o'zbek, rus, ingliz, arab va fransuz tillarida qo'llanma ishlab chiqib, chop etilishini;

Xorazm viloyati hokimligi, Madaniy meros agentligi bilan birgalikda Xiva shahrining turizm va madaniy meros obyektlari, islom dunyosi va ilm-fanning rivojlanishida tutgan o'rni va tarixi, madaniyati, yashash tarzini aks ettiruvchi foto- va videomateriallar ("Guide-book") tayyorlanishini ta'minlasın;

d) Tashqi ishlar vazirligi, Xorazm viloyati hokimligi hamda boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda:

xalqaro tadbirga tayyorgarlik ko'rish va uning yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Islom hamkorlik tashkiloti Bosh kotibiyati bilan hamkorlikda ishini tashkil etsin;

2023-2024-yillarda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari, Internet jahon axborot tarmog'ida "Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti" shiori ostida keng targ'ibot aksiyasini amalga oshirish choralarini ko'rsin;

2023-2024-yillarda Islom hamkorlik tashkiloti tomonidan tashkil etiladigan xalqaro tadbirlar hamda respublikada o'tkaziladigan turizm yo'nalishidagi ko'rgazma va konferensiyalarda "Xiva — 2024-yilda islom dunyosining turizm poytaxti" shiori ostida targ'ibot ishlari amalga oshirsin;

2023-yil oktabr oyida Islom hamkor-

lik tashkilotiga a'zo davlatlarning turistik tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari, blogerlarni jalb qilgan holda Xorazm viloyati bo'ylab infotur tashkil qilsin.

6. Belgilansinki, ushbu qarorda nazarda tutilgan xalqaro tadbir doirasida:

a) Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan quyidagi xarajatlarni qoplanadi:

xalqaro tadbirning xorijiy ishtirokchilarini Toshkent shahridagi aeroport va vokzalda kutib olish hamda kuzatish, ularning respublika hududida harakatlanishi uchun avtobus, avia va temir yo'l chiptalarini xarid qilish;

xalqaro tadbir doirasida xorijiy (ingliz, arab, fransuz) tillarda sinxron tarjimonlar ishtirokini ta'minlash;

xalqaro tadbirni xorijiy ommaviy axborot vositalari, Internet jahon axborot tarmog' va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish;

xalqaro tadbir uchun targ'ibot materiallari (videoroliklar, tarqatma materiallar, kitoblar va boshqalar)ni ishlab chiqish va chop etish;

Islom hamkorlik tashkiloti Bosh kotibi, Bosh kotibiyat xodimlari va ekspertlari, faxriy mehmonlarning mamlakatga kelib-ketishi;

xalqaro tadbirga tayyorgarlik ko'rish va uni tashkil etish bilan bog'liq boshqa tadbirlarni o'tkazish;

b) Xorazm viloyati hokimligi tomonidan mahalliy budget mablag'lari hisobidan quyidagi xarajatlar qoplanadi:

xalqaro tadbir o'tkaziladigan va diqqatga sazovor joylarni obodonlashtirish hamda tadbir o'tkazish uchun tayyor holga keltirish;

xorijiy ishtirokchilar uchun esdalik sovg'alari (suvenerlar, milliy hunarmandchilik mahsulotlari va boshqalar) ni ajratish;

aeroport va temir yo'l vokzallarida hamda markaziy ko'chalar bo'yab o'rnatilgan bannerlar va LED monitorlarda xalqaro tadbirni keng yoritish;

ishtirokchilarning tadbirlar dasturi doirasida diqqatga sazovor joylarga tashriflarini tashkilashtirish;

xorijiy ishtirokchilar, ularga birlashtirilgan gid-tarjimon hamda volontyor kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari uchun tushlik va kechki ovqatni tashkilashtirish va Xorazm viloyati bo'yab harakatlanishi uchun transport vositalari bilan ta'minlash;

xorijiy ishtirokchilar va ommaviy axborot vositalari vakillarining Xorazm viloyatidagi mehmonxonalarda yashashi bilan bog'liq xarajatlar.

7. Xorazm viloyati hokimligi xorijiy ishtirokchilarni aeroport (vokzal)da kutib olish va kuzatish hamda xalqaro tadbir

dasturi asosida ularning harakatlanishi uchun transport vositalarini ajratsin.

8. Tashqi ishlar vazirligi Madaniyat va turizm vazirligining viza talabnomalariga binoan xalqaro tadbirga ishtirok etadigan chet ellik ishtirokchilarga O'zbekiston Respublikasiga kirish vizalari konsullik yig'irlari va haqiqiy xarajatlarning o'rmini qoplash hisobidan yig'irmalar undirilmadan, zarur hollarda, O'zbekiston Respublikasi xalqaro aeroportlarida rasmiylashtirilishini ta'minlasın.

9. Ichki ishlar vazirligi:

Milliy gvardiya bilan birgalikda xalqaro tadbir o'tkaziladigan hududlarda ishtirokchi va mehmonlar to'planadigan joylarda, mehmonxonalarda hamda ularning atrofida jamoat tartibini saqlash;

tadbirlarga tashrif buyuradigan delegatsiya a'zolari xavfsizligini ta'minlash maqsadida yo'l harakati qoidalariga muvofiq hamrohlik qilish choralarini ko'rsin.

10. Favqulodda vaziyatlar vazirligi xalqaro tadbir o'tkaziladigan obyektlar hamda ularning atrofida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash ishlari tashkilashtirsin.

11. Sog'liqni saqlash vazirligi tadbirlar o'tkaziladigan joylarda tez tibbiy yordam brigadalari faoliyati tashkil etilishini ta'minlash, tadbirlar o'tkaziladigan joylarda sog'liqni saqlash hamda sanitariya normalari, qoidalar va gigiyena normativlariga amal qilinishi bo'yicha zarur choralar ko'rsin.

12. Raqamli texnologiyalar vazirligi Madaniyat va turizm vazirligining murojaatiga asosan xalqaro tadbir o'tkaziladigan konferensiya va ko'rgazma zallari, matbuot xonalari belgilangan tartibda zarur texnika vositalari, sinxron tashqi jihozlari va Internet jahon axborot tarmog'ini bilan ta'minlasın.

13. Madaniyat va turizm vazirligining talabnomasiga asosan quyidagilarga:

"Uzbekistan Airways" AJga xorijiy ishtirokchilar uchun xalqaro va mahalliy reyslarga aviachiptalarning band qilinishini ta'minlash;

"O'zbekiston temir yo'llari" AJga xorijiy ishtirokchilar uchun qatnovdagi poyezdlarning barcha turlariga temir yo'l chiptalari zaxirasini yaratish va rasmiylashtirish choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

14. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib madaniyat va turizm vaziri O.A.Nazarbekov hamda Xorazm viloyati hokimi J.R.Raximov belgilansin. Qaror ijrosini muhokama qilib borish, mas'ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh. MIRZIYOEV

Toshkent shahri,
2023-yil 12-iyul

EKSPERTLAR FIKRI

O'ZBEKISTON XALQI O'Z MAMLAKATINING TARAQQIYOTIGA KOMIL ISHONCH BILAN QARAYDI

XITOIY EKSPERTLARI 9-IYUL KUNI BO'LIB O'TGAN O'ZBEKISTON
PREZIDENTI SAYLOVINING YAKUNLARI TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

O'zbekistonliklarning aksariyati amaldagi davlat rahbari Shavkat Mirziyoyevga ovoz bergani uning islohotlar va ochiqlik siyosati keng qo'llab-quvvatlanayotganini tasdiqlaydi. O'zbekiston rahbari 2016-yilda Prezident lavozimiga kelgan paytdan e'tiboran boshlagan keng ko'lami transformatsiya dasturini amalga oshirishda davom etmoqda. Bularning barchasi O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishning yuqori sur'atlarini saqlab qolishi kafolatidir. O'zbek xalqining farovonligi tobora yaxshilanib, mamlakatning kelajakdagi taraqqiyoti yanada yorqin va jadal bo'ladi, deb ishonch bildirish uchun barcha asoslar mavjud.



Li YUNSYUAN,
XXR Davlat kengashi Ijtimoiy rivojlanish markazi huzuridagi Yevroosiyo Ijtimoiy rivojlanish tadqiqotlari instituti direktori:

— 9-iyul kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi mamlakatda aprel oyida o'tkazilgan konstitutsiyaviy referendumning mantiqiy davomi hisoblanadi. Ushbu tadbirlar Yangi O'zbekiston strategiyasini hayotga yanada izchil tatbiq qilish uchun muhim institutsional asos va kafolat yaratgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston strategiyasi, bir tomondan, mamlakatda so'nggi yillarda kechayotgan islohotlar natijasi bo'lgan muvofaqiyatlar asosida, ikkinchi tomondan, dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy voqealar hisobga olingan holda ishlab chiqilgan. Yangi O'zbekiston strategiyasini sinchkovlik bilan o'rganib, ishonch bilan ayta olamanki, uning amalga oshirilishi xalqning hayoti va farovonligini oshirish uchun yangi shart-sharoitlarni yaratish asosida davlat va jamiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi.



Chjan SIN,
Xitoydagi "Shanghai Art Fair International Exhibition" kompaniyasi prezidenti:

— 9-iyul kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Prezidenti saylovida xalqaro kuza-tuvchi sifatida ishtirok etdim. Kuzatuvchi sifatida saylov o'tkazilishiga milliy saylov qonunchiligi hamda xalqaro demokratiya andozalariga muvofiq ravishda har tomonlama va puxta tayyorgarlik ko'rilganini alohida qayd etishni istar edim.

Saylov ochiqlik, oshkoralik va tenglik kabi demokratiya me'yorlari asosida o'tganini ham ta'kidlash lozim. Prezidentlikka siyosiy partiyalardan ilgari surilgan har bir nomzodga bir xil imkoniyat va sharoitlar yaratib berildi.

Saylov uchashtalarida saylovchilar ovoz berish huquqidan to'liq foydalanishi uchun barcha sharoitlar muhayyo edi. Ovoz berish jarayoni saylov qonunchiligi me'yorlari buzilmagan holda o'tkazildi. O'zbek xalqi bu jarayonda katta faollik ko'rsatgani holda ertangi kunga, o'z mamlakatining taqdiriga befarq emasligini namoyon qilgani menda katta taassurot qoldirdi.



U BIXU,
Pekin universiteti professori:
— Avvalo, O'zbekiston xalqini Prezident saylovi muvaffaqiyatli o'tgani bilan tabriklayman.

2023-yil O'zbekiston uchun muhim jarayonlar yili sifatida tarixda qoldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mamlakat Konstitutsiyasi 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendumda yangilandi. Ushbu islohotlarning mantiqiy davomi sifatida 9-iyul kuni muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi bo'lib o'tdi. Mamlakatda hayotiy islohotlar muvaffaqiyatli o'tayotgani quvonarli holdir.

O'zbekiston rivojlanish va modernizatsiya yo'lidan bormoqda. Barcha sohalarida jiddiy islohot va yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Buning zamirida, shubhasiz, xalq farovonligi va mamlakatning gullab-yashnashi maqsadi yotadi.

O'zbekiston bundan buyon ham rivojlanib, gullab-yashnashini istaymiz. Biz mamlakatimizdagi islohotlarni qat'iy qo'llab-quvvatlaymiz va bu borada har tomonlama yordam berishga tayyormiz.

Bugun biz ko'p qirrali O'zbekiston — Xitoy munosabatlari jadal va har tomonlama rivojlanayotganiga guvoh bo'lmoqdamiz. O'zbekistonning xitoyli investorlar uchun sarmoyaviy jozibadorligi kuchayib bormoqda. Bugungi kunda hamkorlikda amalga oshirilayotgan o'zaro manfaatli loyihalar hajmi ham ortib bormoqda.

O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan barcha yuksak maqsadlarga erishishiga tilakdoshman.



"Dunyo" AA
Pekin

BUYUK O‘ZBEK YO‘LI

IJTIMOIIY MO‘LJAL VA MA‘NAVIIY IDEAL MASALALARI

(Birinchii maqola)



Abdullaii MAVRULOV,
tarix fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Shu ma'noda, har bir insonning maqsad-muddaosi muvaffaqiyati ko'plab omillarga bog'liq. Agar shaxs o'z oldiga qo'ygan maqsad va mo'ljallari bir tomondan real voqeilik, ijtimoiy muhitni e'tiborga olgan tarzda belgilansa, bo'lak tarafdian, ular jamiyat tomonidan tanlangan, umum-milliy va umumdavlat manfaatlariga mos keladigan strategik maqsadlarga mutanosib bo'lsa, yana boshqa tomondan, bunday individ o'z oldiga qo'ygan maqsad va rejalariini o'z imkoniyati, bilim saviyasi, kuch-qudratini nazarda tutgan holda belgilasa, shubhasiz, u muvaffaqiyatga erishadi. Demak, shaxsiy, jamiyat hamda davlat manfaatlarining o'zaro uyg'unligi har qanday yutuqqa erishishimizning bosh omili hisoblanadi.

Endi asl maqsadga o'tsak. Insoniyat tarixining qaysi davrini olib ko'rmaylik, barcha bosqichlarda har bir siyosiy elita, ijtimoiy tuzum, ma'naviy-ma'rifiy oqim o'z maqsadlarini e'lon qiladi va shu asosda faoliyat olib boradi. Ana shu faoliyat turi **ijtimoiy mo'ljal** nomi bilan ham ataladi. Bugun yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida yurtimizda sodir bo'layotgan islohotlar, ular natijasida qo'lga kiritilayotgan yongilliklar asnosida ijtimoiy mo'ljal fenomeni xususida ayrim fikr-mulohazalarni aytishni lozim topdik.

Birinchidan, jamiyat va davlat taraqqiyotining bugungi bosqichida o'z oldimizga ko'lami, mazmun-mohiyati, falsafasi nuqtayi nazaridan mutlaqo yangi vazifalarni qo'ydik. Bularning bari "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans sari", deb nomlangan fenomen hodisada jam bo'lgan. Prezidentimiz ushbu masala xususida to'xtalib, "har qanday hodisa, tushuncha yoki atamaning o'ziga xos shakllanish jarayoni bor. Yangi O'zbekiston fenomeni ham bundan mustasno emas. Ushbu tushuncha mamlakatimizning zamonaviy ma'naviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g'oyasini ifoda etadi", deydi.

Demak, bugungi O'zbekistonning ijtimoiy mo'ljali xalqimiz orzu qilgan yangi O'zbekistonnii barpo etish, milliy taraqqiyotning yangi davrida "Xalq manfaati hamma narsadan ulug'", degan ezuq g'oyaning tantanasiga amalda erishish, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashini ta'minlashdan iborat ijtimoiy hodisadir. **Bunday ijtimoiy hodisa, shubhasiz, xalqimizni asrlar davomida orzu qilgan iqtisodiy farovonlik, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik, siyosiy-mafkuraviy yetuklik, millatlararo hamjihatlikka olib chiqadi.**

Ikkinchidan, biz bugun orzu qilayotgan ijtimoiy mo'ljal barpo etishimiz lozim bo'lgan, milliy davlatchilikimiz tarixida mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-mafkuraviy qiyofa bilan chambarchas uyg'unlashib ketgani bilan ajralib turadi. Bu yerda gap biz endi qurishimiz kerak bo'lgan yangi davlatning qiyofasini xususida ketmoqda. Yaqinda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning birinchi moddasida "**O'zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat**" ekanini alohida qayd etildi.

Shu asosda yangi tahrirdagi Bosh qonunimizda barpo etishimiz lozim bo'lgan davlatning "ijtimoiy" va "dunyoviy" mazmun kasb etishi ham jamiyat ijtimoiy mo'ljali bilan uzviy hamohangligidan darak beradi.

Uchinchidan, bugun biz tanlangan jamiyat ijtimoiy mo'ljali faqat siyosiy elitaning xohish-irodasi bilan qilingan emas. **Hech shubhasiz, ijtimoiy mo'ljalimiz bugungi O'zbekiston siyosiy rahbariyatining kuchli siyosiy irodasi, chuqur o'ylangan, ilmiy jihatdan asoslangan, metodologik — konseptual jihatdan pishiq nazariy xulosalar asosida belgilangan.**

Ammo tanlangan ijtimoiy mo'ljalimizning hayotiyli, realligi yana boshqa bir omil — xalqimiz manfaatlariga mustarakligi bilan ham izohlanadi. **Siyosiy elita tomonidan**

tanlangan ijtimoiy mo'ljal xalq, jamiyat a'zolarining manfaatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari bilan uyg'unlashmas ekan, bunday ijtimoiy fenomen hodisaning ijobiy natijasini kutish amri mahol.

Ayni paytda ijtimoiy mo'ljal mazkur jamiyatning faqat siyosiy-mafkuraviy maqsadlaridan iborat bo'lsa va u xalq manfaatlari, ehtiyojlari bilan uyg'un bo'lmasa, ushbu fenomen hodisa o'z hayotiyligini yo'qotadi, kelajagi bo'lmaydi.

Keling, yaxshisi, ushbu fikrlarimizning isboti uchun yaqin tarixdan ayrim misollarni yodga olaylik. 74 yil davom etgan sovet mustabid tuzumi davrida hukmron siyosiy rahbariyat o'z oldiga faqat g'oyaviy-mafkuraviy rejalarni amalga oshirishdan iborat ijtimoiy mo'ljalni sun'iy ravishda aholi ongiga singdirishga harakat qildi. Bunday mo'ljal sovet davlatining jahondagi "Eng adolatli mamlakat" hamda kambag'alparvar davlat ekanini to'g'risidagi soxta g'oya bilan asoslandi.

Boshqacha aytganda, **sovet davlati aholi manfaatlariga mutlaqo to'g'ri kelmaydigan ijtimoiy mo'ljalni tanladi.** Buning natijasida rasman e'lon qilingan ijtimoiy mo'ljalni amalga oshirishga to'siq bo'layotgan jarayonlarni daf etish maqsadida qatag'on siyosati o'ylab topildi, milliy qadriyatlarga qarshi hujum boshlandi, asrlar davomida shakllanib kelgan buyuk davlatchilik tariximiz buzib ko'rsatildi.

O'sha davr ijtimoiy mo'ljalini amalga oshirish bahonasida sobiq sovet respublikalarida, ayniqsa, O'zbekistonda iqtisodiyotni bir tomonlama rivojlantirishga urg'u berildi. Bu esa bugun ham o'zining achchiq mevalarini berayotgan paxta yakkahokimligini shakllantirdi. Sovet davlati tanlangan ijtimoiy mo'ljal tufayli kambag'allikni ulug'lagan holda boy davlat qurishga harakat qilindi. **Sovet mafkurasiga asoslangan o'sha davrning ijtimoiy mo'ljali mamlakatni jahon hamjamiyatidan ajratib tashladi, O'zbekiston esa boshqa mamlakatlar uchun yopiq jamiyatga aylandi.**

Biz yuqorida jamiyat ijtimoiy mo'ljalini tanlash oson ish emasligini qayd etgan edik. Haqiqatan ham shunday. Milliy mustaqillik arafasida, shuningdek, istiqloqling dastlabki yillarida O'zbekiston jamiyati ham o'z ijtimoiy mo'ljalini tanlashga alohida e'tibor berdi. O'sha yillarda turli siyosiy guruhlar, olim-ziyolilar, mamlakat va millat taqdiriga befarq bo'lmagan barcha yurtparvarlar O'zbekiston kelajagini belgilab beradigan ijtimoiy mo'ljalni tanlashda faollik ko'rsatdi.

Fikrlar xilma-xilligi shu darajada rang-barang ediki, ba'zan bu hol kuchli siyosiy tortishuvlar, bahslarga, hissiyotga berilishlarga olib keldi. Ayrimlar O'zbekiston o'z ijtimoiy mo'ljalini tanlashda sobiq sovet davrida ta'qibga uchragan, sun'iy lashtirilgan milliy madaniyatni, qatag'on qilingan o'zbek tilini, qadrsizlanishga mahkum etilgan milliy qadriyatlarini tiklashga alohida e'tibor berish lozimligini ta'kidladi.

Boshqalar esa, ijtimoiy mo'ljalni ko'proq dunyoning rivojlangan, industrial jihatdan taraqqiy etgan, demokratik davlatlarga qarab tanlash lozimligini asoslashga urindi. Nazarimizda, har ikki nuqtayi nazarda ham ratsional mag'iz bir edi. Chunki toptalgan milliy til, madaniyat, qadriyatlarini tiklamasdan, buzib talqin etilgan milliy davlatchilik tarixini xolisona bayon etmasdan milliy taraqqiyotga erishish mumkin emas edi.

Ayni paytda ijtimoiy mo'ljalni tanlashda o'tmishni haddan tashqari ilohiylashtirib yuborish ham milliy taraqqiyotga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. **Shu ma'noda, jamiyat ijtimoiy mo'ljalini o'tmish tarixi, milliy madaniyati, mutafakkirlar ilmiy-ma'naviy merosiga suyangan, ulardan ruhiy-xalqiy quvvat olgan holda, asosiy e'tiborni kelajakka, dunyoning rivojlangan xalqlari va mamlakatlari to'plagan ijobiy tajribaga qarab olishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.**

Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimizning o'z ijtimoiy mo'ljalini shakllantirishda ko'proq o'zimiz uchun qondosh va dindosh davlatlarga e'tibor berganimiz bir tomondan O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga to'laonli xalqaro subyekt sifatida kirishiga imkon bergan bo'lsa, boshqa tarafdian, bu hol dunyodagi rivojlangan davlatlar bilan aloqalarimizni jadal rivojlanishiga muayyan darajada ta'sir etganini ham e'tirof etish kerak.

Jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti u yoki bu millat, davlatning o'z qobig'ida qolishi oqibatida qay ahvolga tushishi mumkinligi yaqin tarixdan ham ma'lum. Bunda, ayniqsa, konseptual xatolarga yo'l qo'yish to'g'ri kelmaydi. Dunyoning rivojlangan davlatlari tomonidan tanlangan ijtimoiy mo'ljallarni o'rganish, ularning barcha uchun muhim bo'lgan eng maqbul yo'llarini e'tirof etish, ijodiy o'zlashtirish, boshqalarni asosli-asossiz tanqid qilish, taraqqiyotning faqat o'zimiz uchun tanlagan qay yo'lini ilohiylashtirish kabilar, shubhasiz, umummilliy yuksalishga ziyon keltiradi. Bularning bari bizga uzoq va yaqin tarixdan saboq bo'lishi kerak.

Xavriyatki, barchasi biz uchun tarix bo'lib qoldi. Bugun mamlakatimiz "Yangi O'zbekiston — Uchinchi Renessans sari" degan ulug'vor g'oya asosida o'z ijtimoiy mo'ljalini tanlab oldi. Bu mo'ljal, shubhasiz, barcha-



mizni taraqqiyotning yangi bosqichlariga olib chiqadi, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi o'rini yanada mustahkamlaydi, umummilliy taraqqiyotga zamin yaratadi. Bugungi O'zbekiston ijtimoiy mo'ljalida dunyo xalqlari, mamlakatlariga qarashlarimiz, munosabatimiz milliy manfaatlarini ko'zlagan holda, o'zaro manfaatli siyosatni olib borishga yo'naltirilgan. Bizning bu siyosatimiz jahondagi barcha ilg'or davlatlar siyosatiga mutanosibli bilan ham ajralib turadi.

Endi masalaning boshqa jihatiga e'tibor qaratsak. Jamiyat ijtimoiy mo'ljali shaxs mo'ljallari asosida shakllanadi. **Boshqacha ayt-**

motga, yurtimizda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lmasdan jamiyat ijtimoiy mo'ljalini tasavvur etish aslo mumkin emas.

Siyosat, jamiyat a'zolarining siyosiy savodxonligini oshirish har doim ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Sharqning mashhur allomalaridan biri Husayn Voiz Koshifiy bu borada shunday deydi: "Siyosat ikki xil bo'ladi: biri o'z nafsiga nisbatan siyosat qilish, ikkinchisi o'zga kishiga siyosat qilish. O'z nafsiga nisbatan bo'lgan siyosat shuki, yomon sifatarni o'zidan yo'qotish va yaxshi xulqlarni egallashdir. Boshqaga

da eski aqidlarga mukkasidan ketish holatlari mavjudligini ta'kidlash lozim. Bir asr avval jaded bobomiz Abdulla Avloniy ham "Kim niman yaxshi ko'rar?" nomli asarida bu haqda shunday degan edi: "Ehtimol, bizning xalq ilm-u ma'rifatni, tarbiya va ta'limni, hunar va sanoatni yaxshi ko'rar, deb o'ylaydurg'ondursiz? Yo'q, bu fikringiz yangilish. Do'kondorlarimiz ishlarini tartibga solmay, zamonaga muvofiq ish yuritmay, Mallaxon zamonidan qolg'on eski do'kon, eski tos, eski tartiblarini yaxshi ko'rurlar. Onalarimiz bilim va tarbiya o'rniga ertlari ila urushub-talashub qizlariga mol qilmakni yaxshi ko'rurlar. Otalarimiz bualarini o'qitmak va ta'lim bermak o'rniga "o'g'lim, emdi kattakon yigit bo'lding, shuncha o'quganing yetar, pul topi!", deb "tashishka" — hammolik qildirishni yaxshi ko'rurlar. Yoshlarimiz ilm va ma'rifatli bo'lish, hunar, san'at o'rganish o'rniga o'zlariga zeb berub tor shim ila kalta kamzul, qotirma yoqalarga bino qo'yishni yaxshi ko'rurlar".

Ushbu so'zlar qanchalar achchiq bo'lganiga qaramasdan, ta'kidlash lozimki, ayni haqiqat. To'g'ri, yoshlarimizning aksariyat katta qismi bugun zamonaviy ta'lim olish, ilm-fan yutuqlarisiz hech qanday taraqqiyot bo'lishi mumkin emasligini yaxshi anglayapti. Yigit-qizlarimizning ko'pchiligi ta'lim va ilm-fanni o'zlari uchun mukammallikka erishishning muqaddas omili sifatida tan olmoqda. Biroq bugungi yoshlar tarbiyasida faqat ularning o'zlarini aylash ham to'g'ri emasligini tan olishimiz kerak.

Darhaqiqat, bu jarayonda ota-onalarning o'rni katta ekanini doimo yodda tutish kerak. Nazarimizda, ota-onalarning farzand tarbiyasi, kamoloti, mutaxassis bo'lib shakllanishi yo'lidagi eng katta xatolaridan biri ularning ijtimoiy mo'ljal haqida mukammal bilim va ko'nikmaga ega emasliklaridir. **Biz yuqorida qayd etganimiz kabi jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy mo'ljalni o'tmishga qarab emas, kelajakka qarab olishdagina ro'y beradi.** Ijtimoiy mo'ljal shaxsning kundalik, mayda-chuyda tashviylar bilan ovora bo'lib qolishini tan olmaydi. Qolaversa, hayotni faqat maishiy muammolarni hal etishdan iborat, deb bilgan jamiyat ham, uning a'zolari ham aslo ijtimoiy mo'ljalni to'g'ri tanlay olmaydi.

Har birimizdagi ana shu odatiy, faqat maishiy muammolarni hal qilishdan iborat bo'lgan kayfiyatni bartaraf etishning eng to'g'ri yo'li ham aslida, biz yuqorida ta'kidlaganimiz kabi shaxsning siyosiy irodasi, ularning bilimlarining realligiga muayyan darajada kafolat beradigan muhim tushuncha. Tafakkur hissiy bilishdan farq qiladi.

Tafakkur insonning ilmiy, ijodiy faoliyatidan iborat. U narsa, hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashorat qilish imkoniyatini vujudga keltiradi. Tafakkur sifatlarini juda ko'p. Ayniqsa, fikrning aniqligi, tiniqligi, ishonchligi, mantiqliligi, mustaqilligi, erkinligi, ilmiyligi, ijodiylikni tafakkurning eng muhim qirralari hisoblanadi.

Yana bir narsaga e'tibor berish lozimki, **inson tafakkuri hech qanday ma'muriy**

ko'rsatmalarga bo'ysunmaydi. U shaxsga majburiy yo'llar bilan singdiriladigan siyosiy-mafkuraviy ko'rsatma va zug'umlarni tan olmaydi. Chunki tafakkur erkin, ozod ijtimoiy-ma'naviy hodisa. Shuning uchun ham tarixda xalq va davlat manfaatlarini nuqtayi nazaridan fikr qilgan, o'z faoliyatida erkin fikr yurita olgan, o'z ijodiy-ilmiy faoliyati bilan e'l-yurtga katta naf keltirgan kishilar mutafakkirlar, deb atalgan. Birinchi va Ikkinchi Renessans davri allomalari, jadid arboblarni mutafakkir, deb bejiz atamaymiz.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkin, yagona to'g'ri ijtimoiy mo'ljalni tanlashda shaxsning tafakkur tarzi alohida ahamiyatga ega. Sharq mutafakkirlari insoniyat tarixida hissiy bilim bilan birgalikda aql masalasiga ham alohida diqqat qaratgan. Haqiqatan ham, aql bilan tafakkur bir-birini doimo to'ldirib turuvchi zarur hodisalardir.

Shu o'rinda fikrlarimizning isboti uchun Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning quyidagi fikrlaridan qimmatliroq iqtibos topa olmadik: "Inson zoti aqli bilan boshqa jonzotlardan ustun turadi. Inson o'ziga berilgan aql vositasida inson yetishi mumkin bo'lgan eng yuqori martabalariga erishadi. Ammo aql o'z-o'zidan ishlab ketavermaydi. Aqlni harakatga soluvchi kuch tafakkurdir. Boshqacha aytganda, insonni harakatga soluvchi kuch aqli emas, balki tafakkuri ila erishgan idrokidir. Tafakkur bo'lmasa, aqlning o'zi hidoyatga yo'llay olmaydi".

Demak, jamiyat tomonidan tanlangan ijtimoiy mo'ljalga erishishning eng muhim shartlari shaxs ijtimoiy faolligi, uning mamlakatda olib borilayotgan siyosatni qay darajada idrok etishi hamda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni uning tomonidan tahlil eta olish ko'nikmasi shakllanganiga va fuqarolarning tafakkur tarziga tegishlidir.

Jamiyat ijtimoiy mo'ljalining muvaffaqiyati, shuningdek, mamlakatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlar va unga shaxs dunyoqarashi darajasining mutanosibliqligiga bog'liqlidir. Ular o'rtasidagi o'zaro muvofillik jamiyatni so'zsiz taraqqiyotga, farovonlikka olib boradi. Nomuvofillik esa, jamiyatda ko'ngilsiz holatlarni yuzaga keltiradi. Bunday holatda davlatning o'rni va ahamiyati juda katta.

Jamiyat ijtimoiy mo'ljalining muvaffaqiyatini ko'zlagan har qanday davlat, eng avvalo, o'z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy bilim saviyasini oshirishdan, ularning siyosiy irodasi va tafakkur tarzini mustahkamlashdan manfaatdor. Buning tasdig'ini bugungi O'zbekiston misolida ko'rish mumkin. Ayniqsa, yaqinda Konstitutsiyamizning yangi tahriri bo'yicha bo'lib o'tgan referendum, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarida, davlat va jamiyat boshqaruvida fuqarolarning keng va faol ishtirok etishi bo'yicha davlat tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar, shubhasiz, jamiyat ijtimoiy mo'ljali muvaffaqiyatining kafolatidir.

Jamiyat ijtimoiy mo'ljali quruq joyda, o'z-o'zidan paydo bo'ladigan hodisa ham emas. Ijtimoiy mo'ljal shu jamiyat fuqarolari tomonidan tanlangan maqsadlar asosida shakllanishini ham unutish mumkin emas. **Siyosiy elita, davlat rahbariyati, turli davlat va jamoat tashkilotlari mamlakatda siyosiy-iqtisodiy mo'tadillik, ijtimoiy-ma'naviy barqarorlik, millatlararo hamjihatlik kabi umuminsoniy qadriyatlar asosida jamiyat farovonligi bo'yicha ulkan marralarni belgilasa-da, biroq fuqarolarda ana shu yetukliklarga korruption holatlar, jinoyiyo'llar bilan erishishga intilish kuchli bo'lsa, bunday vaziyatda ijtimoiy mo'ljalga erishish amri mahol bo'ladi.**

Darhaqiqat, ijtimoiy mo'ljali davlat, jamiyat va shaxs maqsad-muddolari, strategik rejalari uyg'unligi tufayligina mavjud bo'ladi. Shu ma'noda, ijtimoiy mo'ljalni u yoki bu millatning o'z iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-mafkuraviy imkoniyatlarini xolis baholagan holda erishilishi lozim bo'lgan yetuklik darajasi va uning alohida olingan shaxs tomonidan belgilangan maqsadlari bilan uyg'unlashishi sifatida tushunish to'g'ri bo'ladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



BUGUNNING GAPI

ANGI O'ZBEKISTONNING
ANGILANAYOTGAN QIYOFASI

keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarida o'z aksini topmoqda

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari ko'lami joylarda foydalanishga topshirilayotgan yangidan-yangi obyektlar, zamonaviy turar joylar misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Binobarin, kunda kunora yurtimizning qaysidir manzilida yangi turar joy yoki ishlab chiqarish obyekti qurib bitkazilganiga oid xabarlarni eshityapmiz, ko'ryapmiz, o'qiyapmiz.

Qurilish sohasidagi bu jarayon nafaqat shahar va qishloqlar qiyofasini o'zgartirdi, balki odamlar hayotiga o'zgacha mazmun-mohiyat bag'ishlayotgani ham bor gap.

3-7-iyul kunlari poytaxtimizda to'lib o'tgan "Yangi O'zbekiston: taraqqiyot, innovatsiya va ma'rifati" mavzusidagi xalqaro sheriklik tashabbuslari haftaligi doirasida bir nechta tadbirlarning shu sohaga bag'ishlangani ham bejiz emas.

Bu bugun O'zbekiston qurilish sohasida o'ziga xos tajribaga ega bo'lib borayotgan davlatlar sirasiga kirishidan dalolat beradi. Yurtimiz quruvchilaridan o'rganadigan jihatlari borligi, shuning uchun kelgusida aloqalarni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Bugun mazkur sohadagi o'zgarishlar zamonaviy tamoyillar asosida tobora takomillashib borayotgani esa yanada diqqatga sazovordir. Ya'ni O'zbekistondagi bunyodkorlik jarayoni yashil iqtisodiyot, urbanizatsiya, qurilishda muqobil


Foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uylar tomlari bo'sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o'rnatish talabi joriy qilindi. Shuningdek, hududlarda aholi xonadonlariga kichik quvvatli quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha "Quyoshli xonadon" dasturi amalga oshirilmoqda. Joriy yilda 37 ming xonadonda kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari o'rnatiladi.

Aholi uchun yangi uy-joylar qurish hajmi 1,5 barobar oshirildi. Birgina 2023-yilda 90 mingta uy-joy qurish, bu borada ikki yil avval boshlangan imtiyozli shartlar asosidagi ipoteka krediti berish tizimi davom ettirilmoqda.

Respublika shahar, shaharchalarning bosh rejalari hamda qishloq (ovullar) aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha 2023-2027-yillarga mo'ljallangan dastur

Bu kabi mahalla va qishloqlardagi jami 543 ijtimoiy soha obyekti, shu jumladan, 143 ta bog'cha, 265 ta maktab, 136 ta tibbiyot, bitta madaniyat binosi, shu bilan birga, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashga qaratilgan jami 382 obyektga qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirildi.

Mana shu yangilanishlar bilan uyg'un kechayotgan yana bir katta yo'nalish bor. Bu — mahallalar infratuzilmasini yaxshilash. Shu maqsadda Respublika Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi "2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Qaror ijrosi bilan hududlarni obod qilish, qishloq va mahallalarda infratuzilma bilan bog'liq eng dolzarb masalalarni tizimli hal etish, xususan, joylarda ichki yo'llar, ichimlik suvi, elektr energiyasi va gaz ta'minoti, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va boshqa infratuzilma obyektlarini yaxshilash, shu asosda aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratishga kirishildi.



energiya, va albatta, aholini uy-joy bilan ta'minlash borasidagi ijtimoiy siyosatga yo'lg'irilgani bilan alohida ajralib turadi. Mamlakatimizdagi hozirgi qurilish industriyasini ana shu omillarsiz tasavvur qilish mushkul. Shu jihatdan olganda, keyingi 6 yilni sohadagi inqilobiy buriilish davri bo'ldi, desak arziydi. Shu davr ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga doir 27 ta qaror va farmoni, boshqa ko'plab me'yoriy hujjatlar qabul qilingani buning tasdig'idir.

Agar 1991-yildan 2016-yilgacha 2000 ga yaqin qurilish-pudrat tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib ular soni 40 mingdan oshib ketdi. Urbanizatsiya hisobiga aholi sonining ko'payishi, infratuzilma tarmoqlaridagi haddan tashqari yuklamalar, transport harakatidagi tirbandliklar, chang, tutun — bularning barchasi shaharlar maydonini kengaytirishni, odamlar yashashi uchun qulay sharoitga ega yashil shaharlar qurishni taqozo etayotgan edi. Shu bois, ko'p xonadonli binolarning ko'kalamzorlashtirish maydoni umumiy obyektning 25 foizidan kam bo'lmisligi shaharsozlik norma va qoidalarida qat'iy belgilab qo'yildi.

shakllantirildi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish hamda 2023-2027-yillarda aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish dasturlarini tasdiqlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror loyihasi tayyorlandi.

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida hududlarni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Aytaylik, birgina o'tgan yili "Obod mahalla" dasturi doirasida sharoiti og'ir 413 ta mahallaning bosh rejasini hamda qishloq va mahallalar markazining me'morchilik qiyofasini yaxshilash bo'yicha loyihalari ishlab chiqilgan. Jarayonga ilk bor xususiy loyiha tashkilotlari jalb qilindi.



Shu maqsadda 5 ming 284 mahalladagi 6 mingdan ziyod ijtimoiy soha va infratuzilma obyektlarida qurilish-ta'mirlash ishlari belgilandi. Ushbu qaror ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida hududlarda keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari amalga oshirilib, loyihalar foydalanishga topshirilmoqda. Xususan, dasturga kiritilgan 5 ming 600 dan ziyod, boshqacha aytganda, 92 foiz obyektlar yurtdoshlarimiz xizmatiga taqdim etilgan. Bugungi kunda dastur doirasida iqtisod qilingan mablag'lar hisobidan ham qo'shimcha obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlari davom ettirilyapti.

"Obod qishloq" va "Obod mahalla" kabi mahallalar infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan dasturlar doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar

xalqimiz hayotini o'zgartirib, yurtdoshlarimizning hayotdan rozi bo'lib yashashiga zamin yaratdi. Bugun obod mahalla va qishloqlarda yangi hayot nafari ufurib, odamlarni yaxshiliklar sari undamoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Prezidentining 2021-yil 9-dekabr-dagi "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni doirasida 38 ta hududda "Yangi O'zbekiston" massivlarini qurish jarayoni izchil olib borilyapti. Agar qurilishi jadal boshlangan "Yangi O'zbekiston" massivlari infratuzilmasiga, shakl-shamoyiliga e'tibor beradigan bo'lsak, bu yerdan inson manfaati, uning qadri har narsadan ustun ekanligi namoyon bo'ladi. Jumladan, bunday massivlarda ko'p qavatli uylar, muhandislik-transport kommunikatsiyasi, ijtimoiy soha, ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari kompleks tarzda qurilmoqda.

Qurilish iqtisodiyotimizning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanayapti. Binobarin, 2020-yilda qurilish ishlari hajmi 88 trillion so'm, 2021-yilda 108 trillion so'm va 2022-yilda 131 trillion so'mni tashkil etgan shundan dalolat beradi.

Qolaversa, 2021-2025-yillarda qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanish bo'yicha strategiya va "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Umuman olganda, bugun mamlakatimiz qurilish sohasida yangi avlod shakllanib, sohaga zamonaviy uslublar joriy etilmoqda.

Eskirgan normalar
bugungi kun talabiga
uyg'unlashtiriladi

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirining birinchi o'rinbosari Sherzod Hidayatovning qayd etishicha, bugungi kunda qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlanirishning strategiyasi tasdiqlanib, unda shaharsozlik sohasidagi eskirgan normativ hujjatlarni bugungi jahon standartlariga muvofiqlashtirish qat'iy belgilangan.

Jumladan, "Uzbekistan building code" dasturi modernizatsiyasi orqali bir nechta aniq maqsadlar ko'zda tutilmoqda:

— eskirgan va o'z ahamiyatini yo'qotgan normalarni bugungi kun islohotlari bilan uyg'unlashtirish;

— ularni tizimlashtirish orqali qurilish sohasida byurokratik tartib-taomillarni bartaraf etish;

“

QURILISHGA DOIR LOYIHALAR TENDER PLATFORMASI ORQALI INSON OMILISIZ TANLAB OLINADI. TA'KIDLASH LOZIMKI, USHBU AMALIYOTNING DUNYO MIQYOSIDA MUQOBILI KAM. BUNDA TALABGORNING MA'LUMOTLARI AVTOMATLASHTIRILGAN TARZDA SOLIQ, ADLIYA IDORALARI, MAJBURIY IJRO BYUROSII, QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI HAMDA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLAR BAZASIDAN OLINADI.



— normalarni amaliyotda qo'llash bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish orqali takomillashtirish;

— normalarni qurilishga oid xalqaro normativ-texnik hujjatlarga muvofiqlashtirish shular jumlasidan.

Mazkur modernizatsiya jarayoni uchun Koreya qurilish texnologiyalari instituti bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, bu ishlarni muvofiqlashtirish uchun 2022-yilda vazirlik huzurida Qurilishda texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Ayni paytda institutda 80 nafardan ortiq qurilish, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash bo'yicha ilmiy xodimlar hamda malakali mutaxassislar faoliyat olib bormoqda.

Bugungi tekzor zamon, jahon bo'yab globallashuv jarayoni tobora chuqurlashib borayotgan sharoitda raqamlashtirish ilg'or davlatlar iqtisodiyotining barcha tarmog'ida keng joriy etilmoqda. Hatto-ki, ayrim mamlakatlar ushbu sohaning eng yuqori cho'qqisi hisoblangan sun'iy intellektidan faol foydalanyapti. Raqamlashtirish har bir sohada inson omilisiz boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish orqali korruptsiyani kamaytiradi, soliq tushumlarini "aqlli" shartnomalar tuzish orqali ko'paytiradi, byudjet xarajatlari ochiqchilini oshiradi. Yagona elektron platformada xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi. Har bir jabhada raqamlashtirish jarayonini tashkil etish kelajakda real raqobatbardoshlikni uzoq muddatga saqlab qolishda asqotadi.

O'zbekiston qurilish sohasini raqamlashtirish bo'yicha dunyoning ildamlab borayotgan mamlakatlari qatorida, desak mubolag'a bo'lmaydi. Vazirlik tomonidan aholi, tadbirkorlik subyektlari, buyurtmachi, loyihachi va pudrat tashkilotlariga, umuman, qurilish jarayonining barcha ishtirokchilariga yuqori darajada qulaylik yaratish maqsadida qator tashabbuslar ilgari surilmoqda. Bunda barcha xizmat va texnologik jarayonni inson omilisiz muvofiqlashtirib borish maqsadida "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi ishga tushirilgani muhim omil bo'lmog'ida. Bu esa mazkur sohadagi davlat xizmatlarini to'liq

raqamlashtirish, hujjatlarning elektron shaklda aylanishini ta'minlash, investisiya dasturidagi qurilish obyektlarining holatini real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini berayotir. Shuningdek, qurilish obyektlarida nazorat jarayoni elektronlashtirilib, barcha ma'lumotlar avtomatik tarzda shakllantirilyapti.

— "Qurilish sohasidagi davlat xizmatlari axborot tizimi" platformasi orqali bir nechta davlat xizmatlari onlayn amalga oshirilmoqda, — deydi "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi direktori o'rinbosari Shuhrat Hamdamov. — Qurilish hamda tugallangan obyektidan foydalanish uchun ruxsatnoma shu orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, Qurilish va loyiha tashkilotlarining reytingini aniqlash tizimiga respublikada faoliyat yuritayotgan 22 mingdan ortiq qurilish va loyiha tashkiloti kiritilgan. Ularning reytingi tashkilot moddiy-texnik bazasi, raqobatbardoshligi, kadrlar siyosati, moliyaviy ko'rsatkichlari, soha mutaxassislari ish tajribasi kabi bir nechta muhim faktorlar bo'yicha onlayn tartibda avtomatlashtirilgan holda shakllantirib boriladi.

Qurilishga doir loyihalar tender platformasi orqali inson omilisiz tanlab olinadi. Ta'kidlash lozimki, ushbu amaliyotning dunyo miqyosida muqobil kam. Bunda talabgorning ma'lumotlari avtomatlashtirilgan tarzda soliq, adliya idoralari, Majburiy ijro byurosi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat inspeksiya hamda Markaziy bank ma'lumotlar bazasidan olinadi.

Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha axborot tizimi to'liq raqamlashtirildi. Bunda ariza beruvchilar uydin chiqmagun holida murojaat qilishi, qisqa muddatda tegishli ekspertiza xulosalarini olishi mumkin. Eng muhim jihati, murojaatchi onlayn ravishda arizaning har bir bosqichini monitoring qilish imkoniyatiga ega.

Navbatdagi modul qurilish sohasida ko'rsatiladigan elektron xizmatlarni monitoring qilish va har bir obyekt kesimida bosqichma-bosqich amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jam qilgan "Maqsadli dasturlar monitoring" elektron tizimidir. Bu orqali "Shaffof qurilish" qoshidagi boshqa tizimlar hamda tegishli vazirlik va idoralar axborot markazlari bilan integratsiya qilinishi hisobiga muammolarning oldi olinadi.

Ayni paytda mamlakatimizdagi qurilish-bunyodkorlik ishlari bir maqsadga — aholining to'kis hayot kechirishi uchun zamonaviy turar joylar, ijtimoiy soha obyektlari va qulay infratuzilma yaratishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Diilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



XALQ QABULXONALARIDA

ODAMIYLIK MEZONI

Mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohot va o'zgarishlar zamirida yurt tinchligi, fuqarolar manfaati va farovonligini ta'minlash maqsadi mujassam. Binobarin, "Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir" degan konstitutsiyaviy norma asosida mamlakatimizda xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qiladigan samarali va barqaror tizim shakllanayotgani ana shu maqsadlar ro'yobini ta'minlamoqda. Buni hududlardagi Xalq qabulxonalari faoliyatida ham ko'rish mumkin.

Ayni paytda Xalq qabulxonasi faoliyati faqat idorada o'tirib fuqarolarni qabul qilishdan iborat emas. Joylarga chiqib sayyor qabullar tashkil etish, sektorlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlarini uyma-uy yurib, ijtimoiy va boshqa soha obyektlarini o'rganishga jalb etish ham ularning vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash va hal etishni doimiy ravishda muvofiqlashtirib borish, davlat dasturlarini ishlab chiqish va ijrosini nazorat qilish ham ular amaliyotidan keng o'rin olayotir.

Bu jarayonda nogironligi bo'lgan shaxslar, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatamlariga ko'maklashishga, ularning muammolarini hal etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Ana shu hamkorlik samarasi o'laroq, joriy yilning may oyiga qadar Buxoro viloyati Qorako'l tumani Prezident virtual hamda Xalq qabulxonasiga tuman aholisidan 2633 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 2354 tasi yoki 89 foizi ko'rib chiqildi.

Bu murojaatlarning 345 tasi moddiy yordam va pensiya, 110 tasi yer munosabatlari, 106 tasi bandlik masalasi, 97 tasi yo'l infratuzilmasi, 54 tasi daftarlar asosida ijtimoiy himoya va yordam, 179 tasi elektr energiyasi ta'minotidagi, 61 tasi gaz ta'minotidagi muammolar, 82 tasi uy-joy bilan ta'minlash, 81 tasi aliment undirish, 48 tasi esa davolash va tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yichadir.

Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, murojaatlarning 919 tasi ijobiy hal etildi. Masalan, fuqaro O.'Imomov oilaviy ya-

shash sharoiti og'irligi, yong'in tufayli uy-joyi avariya holatiga kelib qolganini bildirib murojaat qildi. Aniqlanishicha, u tegishli tashkilotlardan shu masalada bir nechta bor ko'mak so'ragan. Ammo natija bo'lmagan. Fuqaroning murojaati bu gal Xalq qabulxonasi ishtirokida o'rganilib, ijobiy hal etildi.

Yana bir misol. Fuqaro U.Bozorov 2-guruh nogironi. U viloyat kasalxonalarida davolanish uchun order olish maqsadida Qorako'l tumani tibbiyot birlashmasiga ko'p marotaba murojaat qilib, ko'mak so'ragan.

Ammo birlashmadagi mas'ullar masalaga panja orasidan qaragan. Shundan so'ng u Xalq qabulxonasiga murojaat qilishga majbur bo'ldi. Natijada tibbiy tekshiruvdan o'tkazilib, unga viloyat klinikalarida davolanish uchun order berildi.

Joriy yil davomida tumanda "Sektor sayyor qabullari", "Xalq bilan ochiq muloqot", "Muammo va yechim" kabi mavzularda 88 ta uchrashuv va sayyor qabullar o'tkazildi. Bu tadbirlar orqali ham aholini qiyinab kelayotgan muammolarga o'z vaqtida yechim topilmoqda. Shu o'rinda bir-ikki dalil keltirmoqchimiz.

Fuqaro A.Qodirov yashash hududida simyog'ochlarni ta'mirlash, yangisini o'rnatish yuzasidan murojaat qilgandi.



O'rganishlar natijasida hududdagi transformator ta'mirlandi, yarqoqsiz ahvoldagi simyog'ochlar yangisiga almashtirildi. Shuningdek, fuqaro S.Bozorovning arizasi-ga ko'ra, mahalla ichki yo'llari ta'mirlanib, shag'al to'kildi.

Alohida ta'kidlash joizki, Prezidentning Qorako'l tumani Xalq qabulxonasi tasdiqlangan reja-ga asosan, sektor rahbarlari bilan joriy yilning o'rtan davrida hududlarda 88 marotaba sayyor qabul o'tkazdi.

Albatta, Xalq qabulxonalarining zimmasida katta mas'uliyat turibdi. Bu mas'uliyatni chuqur his etgan holda ishlash odamlarning o'z hayotidan rozi bo'lib yashashlari yo'lida-gi ezigu ishga qo'shilgan hissadir.



Avliyoqul OQQIYEV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
Qorako'l tumanidagi
Xalq qabulxonasi mudiri

Ochig'i, fuqaro manfaati to'g'ri va munosib tarzda ta'minlanishida Xalq qabulxonalari asosiy ko'priq vazifasini bajaryapti. Ular fuqarolarning muammolarini hal etishda muhim o'rinni tutmoqda. Shu bilan birga, keyingi yillarda qabulxonalar ish uslubi ham takomillashyapti.



NUQTAYI NAZAR

TA'LIM MAZMUNIGA
QARATILGAN O'ZGARISHLAR

Abdurahim NOSIROV,
maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi
boshqarma boshlig'i
o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori,
professor

Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi, deyilishi bejiz emas. Chunki inson butun umri davomida oladigan bilim, ko'nikma, malakaning asosiy qismini maktab partasida egallaydi. Umumiy o'rta ta'lim esa boshlang'ich, tayanch o'rta va o'rta ta'limdan iborat.

O'quv rejasi nima?

O'quvchi va o'qituvchining o'qish hamda ish yuklamasi umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasiga bog'liq. Umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi maktablarda o'qitiladigan o'quv fanlari nomi, o'quv yuklamasining minimal hajmi hamda ularning sinflar bo'yicha taqsimoti belgilangan hujjatdir. O'quv rejasi xorijiy tajribani o'rganish holda har yili takomillashtirilmoqda. Bugun 102 turdagi o'quv rejasi mavjud. Shundan 3 turdagi tayanch, 45 turdagi variativ, 54 turdagi ixtisoslashtirilgan va 4 yo'nalishdagi tanlov fanlar o'quv rejasi yangi o'quv yili oldidan Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tayyorlanib, ta'lim muassasalariga yetkazilmoqda. O'quv rejalaridagi bunday xilma-xillikning o'zi ta'lim oluvchilar va ota-onalarga muayyan qulayliklar yaratadi. Birgina shu o'quv yili oldidan joriy etilayotgan tanlov fanlarga asoslangan o'quv rejasi bolalarning qobiliyati va tanlovi asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, yuqori sinf o'quvchilarining fanlarga ixtisoslashuvini kuchaytirish hamda ularni oliy o'quv yurtlariga yo'naltirish uchun keng imkoniyat yaratishga mo'ljallangan.

Mazkur o'quv rejasi yangi o'quv yilida 124 maktabda tajriba-sinovdan o'tkaziladi. Bu maktablarda ijod va ixtisoslashtirilgan muassasalarda yangi baholash tartibi joriy etiladi. 10-sinf o'quvchilari o'zi tanlagan 2 ta faning tayanch o'quv rejasidan farqli ravishda chuqurlashtirilib, 2-3 barobar qo'p hajmda o'qitilishi bitiruvchi sinf o'quvchilari-

o'qitish va o'rganish jarayonining
sifatiga ijobiy ta'sir etadi

ning qo'shimcha pul to'lab, repetitora qatnashiga ehtiyoj qoldirmaydi.

Qolaversa, variativ o'quv rejalar o'quvchilar va maktab ma'muriyati uchun fanlarni tanlash imkoniyatini kengaytiradi. 11 yil uchun o'quv yuklamasi 11 ming 504 soatdan 10 ming 655 soatga tushirilgan. Oldingi yillardan farqli ravishda ta'lim o'zbek tilida yuritiladigan maktablar uchun alohida, rus va qardosh tillardagi maktablar uchun alohida o'quv rejasi tasdiqlangan.

Yangi o'quv dasturlarida
nimalar aks etyapti?

O'quv dasturlarida ham o'zgarishlar talaygina. Umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari shaxsni har tomonlama kamol toptirish, ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakasi hamda saviyasini shakllantirish, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Qolaversa, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida 2023/2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini amaliyotga kiritish belgilangan.

1-4-sinflarda o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish, 5-9-sinflarda o'quvchilarga umumta'lim fanlaridan tayanch bilimlar berish va 10-11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyotini joriy qilish vazifalari qo'yilgan. Ayni paytda ta'lim sifatini oshirish, sohani ilg'or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilishi ko'zda tutilgan.

O'quv dasturlari har doim takomillashtirib kelgan. Nafaqat O'zbekistonda,



balki boshqa xorijiy davlatlarda ham shunday holat kuzatiladi. Bizda o'quv dasturlari 2013-yilda birinchi qadamda chet tillar bo'yicha, keyin barcha umumta'lim fanlari bo'yicha kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilandi. 2017-yilga kelib 9 yillik ta'limdan 11 yillik ta'limga o'tilishi hisobiga yana o'zgarishlar kuzatildi. 2020-yildan boshlab umumiy o'rta ta'limning xalq ta'limi tizimida Milliy o'quv dasturlari ishlab chiqildi. 2021-2022-yillarda 21 fandan uzluksiz ta'lim tizimi uchun fanlar bo'yicha konsepsiyalar ishlab chiqildi.

Barcha ta'lim turlari bo'yicha o'tiladigan mavzulardagi takrorlanish bartaraf etilib, 21 fandan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim muassasalar uchun uzviylik ta'minlangan O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari tayyorlandi. Bunda boshlang'ich ta'limni maktabgacha ta'lim tizimi bilan bog'lash, o'quvchilarda umumiy o'r-

markazi UNICEF tashkiloti bilan hamkorlikda Singapur, AQSH, Angliya (Kembriji), Finlyandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Gongkongda foydalanilgan o'quv dasturlari, Prezident maktablari bilan Kembriji tajribasi, o'quv dasturlari va darsliklarini o'rgangan. Shunga qaramay, amaldagi uzviylik ta'minlangan o'quv dasturlari bugungi katta islohotlar ta'sirida yana yangilanishga ehtiyoj sezmoqda.

Davlatimiz rahbarining uzoqni ko'zlab olib borayotgan siyosati va ta'lim islohotlari natijasida iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish maqsadida tashkil etilgan Prezident ta'lim muassasalarini, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda joriy etilgan Kembriji o'quv dasturlari va darslik majmualari, o'qitish metodikalari samara bera boshladi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi oldiga qo'yilgan vazifalar orasida aynan ushbu maktablardagi yangi tajribalar, o'qitish metodikalari, o'quv dasturlari va darslik majmualarini umumiy o'rta ta'lim maktablariga bosqichma-bosqich joriy etish ham turibdi. Bugun umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi fanlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda sinflar bo'yicha har bir fandan turli o'quv dasturlarini amaliyotga joriy etish ustida ishlanmoqda. Xususan, 1-4-sinflarda yangi darsliklar bo'yicha o'qitishda 4K modeli joriy qilinadi: kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash. Shuningdek, tajriba tariqasida bosqichma-bosqich 7-sinfdan ikkinchi xorijiy til (fransuz, nemis, koreys, xitoy, ingliz)ni o'qitish, 10-11-sinfdan 3 yo'nalishda kasb, ishchi kasblarni o'rgatish, 10-11-sinflarda 4 yo'nalishdagi tanlov fanlarini joriy etish: kimyo-biologiya, matematika-fizika, matematika-chet tili, ona tili va adabiyot-chet tili. Bunda 2 ta tanlov fan chuqurlashtirib o'qitiladi. Umumiy fanlar soni 18 tadan 11 ta majburiy fanga tushiriladi.

O'qitish va o'rganish
resurslari

Darslik — davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'quv dasturi asosida didaktik, metodik, pedagogik-psixologik, estetik va gigiyenik talablarga javob beradigan holda yaratiladi, chop etiladi va maktablarga yetkaziladi.

2022-yilda maktablarda ingliz, nemis, rus tili fanidan xalqaro darajadagi darsliklar joriy etilgan bo'lsa,



“O'QUV DASTURLARI HAR DOIM TAKOMILLASHIB KELGAN. NAFAQAT O'ZBEKISTONDA, BALKI BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDA HAM SHUNDAY HOLAT KUZATILADI. BIZDA O'QUV DASTURLARI 2013-YILDA BIRINCHI QADAMDA CHET TILLAR BO'YICHA, KEYIN BARCHA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA YANGILANDI. 2017-YILGA KELIB 9 YILLIK TA'LIMDAN 11 YILLIK TA'LIMGA O'TILISHI HISOBIGA YANA O'ZGARISHLAR KUZATILDI.

majmua shaklida bo'lgan bo'lsa, endi barcha fanlardan darslik, ish daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma va multimedial ilovalardan iborat tarzda yaratilmoqda. Ammo natija ijobiy tomon siljidi, deya olmaymiz.

Har bir fandan darslik bilan birga o'qituvchi uchun ishlab chiqilayotgan metodik qo'llanmalardan barcha pedagoglar ham birdek samarali foydalanmayapti. Ayrim hollarda yangi metodikalar bilan ishlashga o'rgatadigan o'quv-seminarlar yetarlicha tashkil etilmadi. O'qituvchilar malakasini oshirishdagi o'zgarishlar ham yordam berish o'rniga muallimlarni dangasa qilib qo'ya boshladi. Metodistlar fanlar kesimida o'quvchilar o'zlashtirishdagi bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan metodik tavsiyalarini yetarli darajada bermayapti. Ilgari har bir tuman (shahar)da, viloyat xalq ta'limi boshqarmalarida fan metodistlari faoliyat olib borgan bo'lsa, bugun ular soni ancha kamaygan. Faqat viloyat pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari tuzilmasidagi metodik xizmat ko'rsatish bo'limlarida bittadan fan metodisti sharti mavjud, xolos. Bugun vazirlik ushbu lavozimlar uchun e'lonlar bergan va eng tajribali mutaxassislar fan metodistligiga saralab olinmoqda. Natijada yangi o'quv yili oldidan o'qituvchilar forumini mazkur saralab olinadigan fan metodistlari yordamida amalga oshirish rejalashtirilgan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining o'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi mazkur vazifalarni amalga oshirishda mahalliy va xorijiy ekspertlar bilan yaqindan ishlamoqda.

Kim o'qitadi?

Kim o'qitadi, degan savol o'qituvchilar va ularning salohiyati bilan bog'liq. Tugallangan o'quv yilida hukumatga qarashli 10 ming 104 maktabda 6,3 million nafar o'quvchiga 509 ming 443 o'qituvchi dars berdi. Shundan 224 ming 384 nafari toifaga ega emas; 41 ming 814 nafari oliy toifali, 96 ming 245 nafar birinchi toifali va 147 ming ikkinchi toifali o'qituvchilardir. Tahlillarga ko'ra, ularning 46 foizi dars jarayonida zamonaviy metodikalarni qo'llamaydi; 38 foiz pedagog tajribasiz, 52 foiz an'anaviy usulda dars o'tadi. Qolaversa, har yili mamlakatimiz bo'ylab 16 ta pedagogik yo'nalishdagi pedagogik oliy ta'lim muassasalaridan yosh bitiruvchi maktablarga kirib keladi.

Ushbu raqamlar o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish borasida talaygina vazifalar turganini ko'rsatadi. Shu bois, yangi o'quv yilidan boshlab birinchi marta ishga qabul qilingan muallimlar bir yil muddat stajyor-o'qituvchi sifatida faoliyat yuritishi, pedagoglarni kasbiy sertifikatlash tizimi joriy etilishi belgilandi. Pedagog kadrlarning malaka talablari xalqaro tajribalar asosida takomillashtiriladi.

Yangi o'quv yili oldidan maktablar, o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar uchun ham ta'lim mazmuniga qaratilgan yangiliklar bisyor. Ularni sifatli tashkil etish ustida vazirlik tomonidan rejali ishlar olib borilmoqda. Bu ulkan vazifalarni tizimli amalga oshirish va samaradorligiga erishish mutasaddilarda hamda ta'lim jarayoni ishtirokchilariga bog'liq. Asosiysi, mazmunga bog'liq yangiliklar ta'lim tizimining rivojiga, o'qitish va o'rganish jarayonining sifatiga ijobiy ta'sir etadi, degan umiddamiz.



O'zbekiston kuchaymoqda



Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

Har shahr-u kent bugun obod bog'-u bo'ston,
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.
Dunyo davlatlari deydi: Dong'i doston,
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

Avval boshda sal mensimay qarashgandi,
Kimlar — qilich, kimlar-chi, tish qayrashgandi,
“Qaygacha ham boradi” deb sayrashgandi,
Qarg'a, to'ti bo'lib rosa yayrashgandi.
Pufaklarday puchaymoqda ig'vo, bo'hton,
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

Millatlarning birlashgan tashkilotida,
Davlatlarning har majlis-mashg'ulotida,
O'zbekiston: “Jafokash xalq afg'on” deydi,
“Necha yillar chekmish ohu fig'on” deydi.
Aytadirk: temir yo'llar olib boray,
Uylaringga simyog'ochlar tortib boray.
Birgalashib to'ldiraylik kamin, deydi,
O'z uyida o'zgalarning g'amin yeydi.
Neki insonparvarlikdir — kuydirib jon,
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

Bir chiroyli yangrar tongda azonlaring,
Oyatlardan nur taratgan ayvonlaring.
O'ttiz yillardan so'ng, mana, Qatar keldi,
Arboblari laylaklarday qator keldi.
Bizning elga bu millatning ixlosi bor,
Uylarida Buxoriyning merosi bor.
Amir o'zi daraxt ekdi Samarqandda,
Yer yuzini karaxt etdi Samarqandda.
Sherdor aytisin, Shohizinda yo Registon,
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

Ey, olamga Dantelarni bergan diyor,
Petrarkani tug'ib ko'krak kergan diyor.
Har g'ishting, har salobatli ustuningda,
Daholarning yemirilmas nomlari bor.
“Boburnoma” bilan keldik zabt etgali,
Chin yurakdan, chin dildan suhbat etgali.

Har neki bor bunda bari tantanavor,
Italiya, shonli diyor, shonli diyor!
Zamonaviy afsonaga o'xshamoqda,
Qadimiy Rim o'zi gilam to'sharmoqda,
Rumoga ham kirib kelgan ulug' karvon —
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

Bordir ammo ko'ngli bizga g'ash davlatlar,
Bizni hasad qilguvchi badrashk davlatlar.
Yo'q bo'lsang gar — sariq chaqa berolmaydi,
Bor bo'lsang gar — ko'rolmaydi, ko'rolmaydi.
Bizning hech bir mamlakatdan ginamiz yo'q,
Tegadigan suqimiz yo kinnamiz yo'q.
Bir mayizni qirg'ga bo'lib yegan xalqimiz —
Ko'zimiz to'q. O'zimiz to'q. Ko'nglimiz to'q.
Jaholat ham oxir topgay nihoyalar —
Ezgulikka xizmat qilsin pok g'oyalar.
Yer yuzini egallamay hasad, riyo,
Hamkorlikni kuchaytirsin sarmoyalar.
Kim o'qrayar, kimlar esa lol-u hayron:
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

O'zbek desa, borlig'ini bergan og'am,
Izzat qilmish olijanob zot Erdog'an.
Garchi olam turfa fikr-u o'ylovlidir,
Ulug' zotlar olam aro siylovlidir.
Vaqt o'zi devonlarin sandiqlaydi,
Yunus Emro hazratlari tasdiqlaydi.

Bu olamga qancha ulug' xitob bergan,
Qancha ilm-u irfon, qancha kitob bergan.
Aytmagizkim, kuch — urug'da, kuch — aymoqda,
“Ota yurtim” degan ellar ko'paymoqda,
Kitob bilan olamni zabt etmish chunon,
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

Dunyo kezmoq — shunchaki bir sayru gashtmas,
Tamosho yo bordi-keldi degan gapmas.
Ulug' zotlar bekor aytmas, bekor aytmas:
Islahotlar ortga qaytmas, ortga qaytmas!
O'zbekiston, bog'-u bo'ston, bog'-u bo'ston,
Kundan-kunga dong'i doston, dong'i doston.
Olmoniyo, Majoriston, Farangiston —
Yetti iqlim davlatlari senga mehmon,
O'zbekiston, bag'ri osmon tanti mezbon.
Bu bir cho'pchak emas va yo jumboq-chiston,
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

O'ylamangkim, men yo'q gapni bor ayladim,
Men bor-yo'g'i ko'nglimni izhor ayladim.
Bayroqlaring bir jonajon hilpiraydi,
Jon-u dilim jimirlaydi, jimirlaydi.
Bir imzongda qancha or-u, qancha g'urur,
Ona yurtim, qaddingni ker, qandingni ur!
Chiqib kelding ne-ne mudhish zamonlardan,
Xudo O'zi panoh bersin yomonlardan!
Yuzga kirgan onalarning duolari qo'shilmogda,
Asriy orzu-armonlarning ushalmogda,
O'zing bukun mardlar aro mardi maydon,
O'zbekiston kuchaymoqda, O'zbekiston.

11.06 — 9.07.2023

Qadimiy Qo'qon yana bir nufuzli tadbirga mezbon

Jahon hunarmandlar festivaliga mezbonlik sabab Qo'qon shahri ko'plab chet ellik sayyohlarda yanada katta qiziqish uyg'ota boshladi. Dastlabki festival doirasidagi birgina “Rishton moviy afsonasi” ko'rgazmasida kulollikning 800 xildan ortiq nodir ko'rinishlari namoyish qilingan, tarixiy ziyoratgohlari, hunarmandligi milliy liboslari, urf-odat va qadriyatlarini, ayniqsa, xalq og'zaki ijodi tarannum etilgandi.



11-iyul kuni tantanali ochilgan tadbir-da festivalni har ikki yilda o'tkazib turish belgilangan eslatib o'tildi.

Festival ishtirokchilari 3 kun davomida kitobxonlik kuni, milliy va etnosport turlari bo'yicha musobaqalar, madaniy-ko'ngilochar tadbirlar, yoshlar uchun biznesni tashkil qilish, hunarmandlik mahsulotlarini tayyorlash bo'yicha davra suhbatlari ishtirokchisi hamda guvohi bo'lishadi. Bundan tashqari, yoshlar taniqli teatr va kino ijodkorlari bilan ijodiy muloqotlar qilishi, mamlakatimizdagi xorijiy elchixonalar vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazishi ko'zda tutilgan. Turkiy tilli yoshlarning do'stlik kechasi, Qo'qon shahridagi diqqatga sazovor joylarga sayohat, milliy hunarmandlik mahsulotlari ko'rgazmasi,

Rishtondagi xalqaro kulollik markazi hamda Uchko'prik tumanidagi “Mehrigiyo” kichik korxonasining lavanda bog'lariga tashrif yoshlarda unutilmas taassurot qoldirishiga shubha yo'q.

Darvoqe, festivalga yurtimizning barcha hududlaridan, shuningdek, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Turkiyadan jami 200 nafardan ziyod faol yosh va talaba taklif etilgan.

Farg'ona viloyati hokimi o'rinbosari Xurshid Ahmedovning aytishicha, ochiq muloqot ruhida o'tkazilayotgan tadbirlar davomida yoshlarimiz qardosh mamlakatlardan kelgan tengdoshlari bilan hamkorlikda keyingi faoliyati uchun muhim bo'lgan g'oya va loyihalar borasida fikr almashmoqda. Buning uchun B2B formatda uchrashuvlar tashkil etilyapti, tadbirkorlik subyektlarini taklif etgan holda barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Xalqaro festival 15-iyul kuni shahardagi O'rda maydonida tantanali yakunlanadi.

Munojat MO'MINOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



Prezidentimizning 2022-yil 29-iyuldagi “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida joriy yilda Farg'ona viloyati hokimligi, Madaniyat va turizm vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY bilan hamkorlikda Qo'qon shahrida ilk bor Turkiy tilli yoshlar festivali o'tkazilmoqda.

Festival yosh avlodning xalqlarimiz tarixi va milliy-madaniy merosiga mehri-ni oshirish, Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni targ'ib qilish, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, turizm sohasiga keng jalb etish, istiqbolli g'oya va loyihalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etildi.

E'TIBOR BOR JOYDA YUKSALISH BO'LADI



So'nggi yillarda yurtimizda jismoniy tarbiya va sportga qaratilayotgan alohida e'tibor yuksak samaralar bermogda. Buni o'zbekistonlik sportchilarning jahon va Osiyo chempionatlari, Olimpiada hamda nufuzli xalqaro turnirlarda erishayotgan yutuqlarida ham ko'rishimiz mumkin.



bunga erishish uchun esa bor kuchim bilan harakat qildim va g'alaba qozondim. Qolaversa, o'z Vatanimizda muxlislar ishonchini oqladik. Albatta, buning uchun ko'p mehnat, kuchli jismoniy tayyorgarlik va murabbiylarning tavsiyalariga qat'iy amal qilish talab etiladi. Davlat mukofoti bilan taqdirlanganim ota-onam va ustozlarimning mehnati samarasi, — deydi Olimjon Normurodov.

Darhaqiqat, “Mard o'g'lon” davlat mukofoti yangi O'zbekistonni barpo etish va uning xalqaro nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan, yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va yuqori salohiyatga ega, xalq manfaatini va yurt istiqbolini uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan Olimjon Normurodov kabi iqtidorli yigitlarga beriladi.

Bu yutuqlarim hali boshlanishi, o'inda ulkan orzularim bor. Avvalbi, olajon yurtimga xizmat qilish va sportda navbatdagi yutuqlarni qo'lga kiritish oliy maqsadim, — deydi qahramonimiz.

Bugungi O'zbekiston yoshlari shunday yutuqlarga qodir. Fikrimizning yana bir isboti joriy yilda Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan navoiylik Dildora Rahmatovadir.

“Harakat — bu hayot”, deydi faylasuflardan biri. Mutaxassislar e'tiroficha, bolalikdan jismoniy faollikda o'sib-ulg'aygan qizlarda o'ziga ishonch yuqori

bo'ladi. Dildora ham gimnastika bo'yicha ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritgan.

Dildorani mashg'ulotlardan keyin kutubxonada uchratdik. Sport bilan shug'ullanib, kitob mutolaasini ham kanda qilmaydigan qahramonimiz ilmi, tafakkurini muntazam boyitib bormogda.

Bir necha marta O'zbekiston, ikki karra Osiyo chempioni, ko'plab xalqaro turnirlar g'olibasi, XVIII Osiyo o'yinlarining kumush medali sohibasi Dildora Rahmatova ayni vaqtda yosh yigit-qizlarga ham gimnastika sirlarini o'rgatib kelmogda.

— Bu sport turini tanlashimning asosiy sabablaridan biri nafisligi va jozibadorligidir. Uning o'ziga xos murakkab jihatlar bor va juda nozik harakatlarni ham talab etadi. Hozir oltinshdan ortiq yoshga murabbiylik qilyapman. Kutubxona esa sevimli maskanim va bo'sh vaqtimni shu yerda o'tkazaman. Badiiy kitoblar va Zulfiyaxonim she'rlarini sevib o'qiymen, — deydi Dildora.

Ha, yurtimizda, xususan, Navoiyda Olimjon va Dildora kabi iqtidorli yigit-qizlar juda ko'p. Ularning davlat mukofotiga loyiq topilgani esa kamolot ostonasidagi bunday yoshlarni porloq manzillarga boshlashi, shubhasiz.

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DUK

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-746.
43927 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilmiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz (71) 233-47-05